



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki


**Markaziy bank asosiy stavkasi
yillik 14 foiz darajasida belgilandi**

Matbuot anjumani

28-yanvar 2026-yil




So'nggi oylarda umumiy inflyatsiya pasayishda davom etdi





2025-yil dekabr oyida umumiy inflyatsiya **0,2 f.b.ga** pasayib, **7,3 foizni** tashkil qildi.

INI tarkibida narxlari yillik 5 foizdan yuqori oshgan tovar va xizmatlarning ulushi kamayib bormoqda




Bazaviy inflyatsiya pasayib borayotgan bo'lsa-da, noyabr-dekabr oylarida meva-sabzavotlar va tartibga solinadigan narxlar inflyatsiyasida o'sish kuzatildi




2026-yilda inflyatsiya darajasi 6,5 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda

Inflyatsiya prognozi, foizda



Inflyatsiya dekompozitsiyasi




2026-yilda **tartibga solinadigan narxlar inflyatsiyasi** va **bazaviy inflyatsiyaning** pasayishi umumiy inflyatsiyani pasaytiruvchi asosiy omillardan bo'radi.


Inflyatsiya darajasi 2027-yilda **5 foizlik target** darajasigacha tushishi prognoz qilinmoqda.

“Marker” tovar va xizmatlar narxlari yillik o‘shishi umumiy inflyatsiyadan baland qolmoqda

Vazni bo‘yicha eng yuqori*





yillik foizda



* Go'sht, tuxum, bug'doy unlari, o'simlik yog'lari, guruch, kartoshka, pomidor, olma, yonilg'ilar, ko'mir, yengil avtomobillar, ko'ylaklar, dori vositalari, kommunal xizmatlar, mobil aloqa xizmatlari, OTMda o'qish, taksi yo'l haqi, kafe-restoran xizmatlari, tibbiy xizmatlar.

Dekabrda sezilgan inflyatsiya va inflyatsion kutilmalar biroz oshdi




AHOLI	2025											
	yan	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg	sen	okt	noy	dek
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	57	63	59	59	57	50	51	48	46	46	49	50
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	50	52	48	47	49	45	45	41	41	42	40	47
Transport xarajatlarning oshishi	30	31	28	29	32	30	27	26	25	25	24	29
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	26	28	28	26	25	22	24	26	25	27	26	26
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	22	23	20	18	22	35	34	31	27	26	23	25
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	25	32	26	26	26	24	24	22	22	23	20	24
Valyuta kursining o'zgarishi	46	41	39	38	37	27	30	24	22	22	20	23


TADBIRKOR	2025											
	yan	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg	sen	okt	noy	dek
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	54	58	52	55	54	47	47	45	44	47	46	46
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	49	50	45	46	48	43	42	40	41	45	42	45
Transport xarajatlarning oshishi	32	34	31	31	37	32	31	31	30	33	30	37
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	26	22	23	23	24	33	34	33	29	25	23	26
Xomashyo narxlarning qimmatlashishi	25	27	25	27	28	25	25	24	26	28	26	25
Soliq yukining yuqoriligi	24	27	26	27	27	25	26	24	24	23	21	24
Valyuta kursining o'zgarishi	51	43	43	43	40	31	31	25	22	21	19	23

2025 yil iqtisodiy o'sish 7,7 foizni tashkil etdi

YalM va uning komponentlari real o'sishi, kumulyativ, foizda



YalM real o'sishi dekompozitsiyasi, kumulyativ, foizda



Sanoat hajmi **6,8 foizga** (YalM o'sishiga qo'shgan hisssasi – 1,7 f.b.);


Xizmatlar hajmi **14,7 foizga** (3,9 f.b.);

Qishloq xo'jaligi – **4,4 foizga** (0,8 f.b.);


Qurilish sohasi **14,2 foizga** (1 f.b.) o'sdi.

2025-yilda jami investitsiyalar hajmi 10,5 foizga oshdi

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning real o'sishi, kumulyativ, foizda



Xorijiy investitsiyalar, mln dollarda




Ushbu davr mobaynida **markazlashgan investitsiyalar** o'sish sur'ati **13,6 foizni**, **markazlashmagan investitsiyalar** esa **10,2 foizni** tashkil etdi.


Shuningdek, mamlakatimizga **19 mlrd dollar** miqdorida **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar** kirib keldi va 2024-yilga nisbatan **56 foizga** oshdi.

Ajratilgan kreditlar dinamikasi

Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar,
trln so'mda




Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar o'sishi, foizda



- 2025-yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga **ajratilgan kreditlar** hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35,8 foizga** oshib, **390 trln** so'mni tashkil etdi (2024-yilning mos davrida 14,2 foizga oshib, 287 trln so'mni tashkil etgan).


Eksport hajmi 24 foizga oshib, 33,8 mlrd dollarni tashkil etdi
Import 18,5 foizga o'sib, 47,4 mlrd dollarni tashkil qildi

Eksport barqaror komponentlarining o'sish sur'atlari, kumulyativ, foizda



— Eksport, jami — Oltinsiz eksport — Oltin va xizmatlarsiz eksport

Import o'sish sur'atlari, kumulyativ, foizda




— Import, jami — Xizmatlarsiz — Energetika va mashina-uskunalarisiz

Oltinsiz eksport o'sishi 21,3 foizgacha tezlashib, 24 mlrd dollarga yetdi.

Asosiy eksport xomashyo tovarlari narxlari tashqi bozorlar konyunkturasiga mos ravishda shakllanishi hamda ma'lum sanoat va qishloq xo'jaligi tovarlarining eksport hajmi oshishi umumiy eksportni oshiruvchi asosiy omillardan bo'ldi.

Iste'mol faolligini qo'llab-quvvatlayotgan yana bir muhim omil bu aholining daromadlari oshishi bo'lmoqda


kumulyativ, foizda



2025-yilda **aholining umumiy daromadlari 18,9 foizga, real hisobda esa 9,2 foizga** oshdi.

Bunda aholi daromadlari o'sishiga **yuqori investitsion faollik, ish haqlarining oshishi**, shuningdek xorijiy **pul o'tkazmalari** hajmining o'sishi asosiy drayverlar bo'lib xizmat qilmoqda.


Savdo aylanmasi va savdo tushumlari o'sishi yuqori shakllanmoqda




Savdo va pullik xizmatlardan tushumlar o'sishi **24,7 foizga** yetgan bo'lsa, **banklararo tranzaksiyalar** hajmi **56 foizni** tashkil qildi.

2026-yilda YaIM o'sishi 6,5 – 7 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda

YaIM real o'sishi prognozi, foizda




YaIM tafovuti dekompozitsiyasi



Iqtisodiy o'sishning asosiy omillari bo'lib yuqori iqtisodiy faollikning davom etishi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmining oshib borishi xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiyoti o'sishi kelgusi yillarda yuqori noaniqliklarga qaramasdan 2025-yil darajasi atrofida saqlanib qolishi kutilmoqda *




* Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, 2026-yil yanvar // 2025-yil oktyabr

Bunga, **sun'iy intellekt texnologiyalariga investitsiyalar** hamda **moliyaviy sharoitlarning yumshatilib borishi** o'sishni qo'llab-quvvatlovchi omillar sifatida qayd etilib, savdo siyosatidagi o'zgarishlar va geosiyosiy keskinliklar o'sishga salbiy ta'siri saqlanib qolishi kutilmoqda.

Xalqaro savdo aylanmasi o'sishi avvalgi prognozlarga qaraganda yuqoriga qayta ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, oldingi yillardagi ko'rsatkichlaridan sezilarli past bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Savdo hamkorlar iqtisodiyoti bo'yicha yangilangan prognozlar 2026-yilda o'sish biroz sekinlashishini ko'rsatmoqda




* Jahon banki prognozlari, boshqa barcha mamlakatlar uchun XVJ prognozlari keltirilgan

Bu **Rossiyaning** iqtisodiy sekinlashishi hamda qat'iy migratsion siyosati ushbu mamlakatlar eksport hajmlari va pul o'tkazmalariga salbiy ta'siri bilan izohlanadi.


Xitoyda iqtisodiy kayfiyatning pasayib borishi va tarkibiy sekinlashuv fiskal rag'batlantirishlar va o'sishni qo'llovchi boshqa choralar ta'siridan ustun kelib, kelgusida o'sishni cheklovchi bo'lib qolishi kutilmoqda. **Turkiyada** real daromadlarning o'sishi va davom etayotgan mo'tadil dezinflyatsion jarayonlar shaxsiy iste'molni qo'llab-quvvatlab, o'sishni oshiruvchi bo'lishi kutilmoqda.

Pul-kredit operatsiyalari pul bozorida foiz stavkalarini foiz koridori doirasida shakllanishini ta'minlamoqda

UZONIA benchmark stavkasi dinamikasi, foizda




Milliy valyutadagi depozitlar qoldig'i o'sishi, foizda




- Likvidlikning tartibga solinishi natijasida, **UZONIA** benchmark foiz stavkasi foiz koridori doirasida shakllandi va dekabr oyida o'rtacha **13,8** foizni tashkil etdi;
- Bank tizimi likvidligi profitsitining o'sishi hisobiga daromadlik egri chizig'ining biroz pasayishi kuzatildi;
- 2026-yilning 1-yanvar holatiga bank tizimidagi jami depozitlar qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan **38,5 foizga** o'sib, **310 trln** so'mni tashkil etdi.

Depozitlar bo'yicha real foiz stavkalar iqtisodiyotda jamg'arishga bo'lgan moyillikni rag'batlantirmoqda

Depozitlar bo'yicha
real foiz stavkalar, foizda



Aholi depozitlari
qoldig'i, trln so'mda



So'nggi chorakda inflyatsion kutilmalar pasayishi subyektlarining dekabrda **depozitlar bo'yicha real stavka 8,2 foizga** teng bo'ldi.

Aholining banklardagi jami depozitlari 2024-yildagi 114 trln so'mdan 2025-yilda **152 trln so'mgacha** yoki **34 foizga** oshdi.



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

**Markaziy bank asosiy stavkasi
yillik 14 foiz darajasida belgilandi**

Matbuot anjumani

28-yanvar 2026-yil

